



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 12-sentabr

VII-23-83-6-82-K/26

Namangan tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmoniga asosan, tuman hokimligi huzuridagi “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-17-son farmonida qabul qilingan. Ushbu farmonning 8-bandiga muvofiq “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalariga yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish Xalq deputatlari tuman kengashlari qarorlari asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Bundan tashqari 9-bandiga asosan “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari mablag‘larini tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda iqtisodiyot va moliya bo‘limlari bilan kelishgan holda quyidagi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirish belgilab o‘tilgan:

tumanda aholining hayot kechirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

tumanda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish;

ekologiya va atrof-muhitni asrash, aholi salomatligi va sanitariya-gigiena sharoitini yaxshilashga qaratilgan hamda boshqa zarur tadbirlarni moliyalashtirish belgilab o‘tilganligini inobatga olib, tuman aholisining hayot kechirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi loyihalar shakllantirildi:

1.Namangan tuman “Oq yer” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Sh.Haydarovni tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Oq yer” MFY “Sayxun” ko‘chasiga 10 dona, “Esqon” ko‘chasiga dona jami 40 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 48 000.0 (qirq sakkiz) million. so‘m;

2.Namangan tuman “Ko‘l bo‘yi” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi A.Jo‘raevning tuman hokimi nomiga yozgan 31.03.2026 yildagi 01/11-sonli

bildirishnomasiga asosan, “Ko‘l bo‘yi” MFY “Chek va Ixtirochi”lar ko‘chalariga 600 kV 20 dona, tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 24 000.0 (yigirma to‘rt) million. so‘m;

3.Namangan tuman “Oq buloq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi B.Yigitalievni tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Oq buloq” MFY “Bog‘ ko‘cha” ko‘chasiga 600 kV 30 dona, tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 36 000.0 (o‘ttiz olti) million. so‘m;

4.Namangan tuman “Qumqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi G‘.Inamovni tuman hokimi nomiga yozgan 04.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Qumqo‘rg‘on” MFY “Aziz” ko‘chasiga 600 kV 20 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 24 000.0 (yigirma to‘rt) million. so‘m;

5.Namangan tuman “G‘ayrat” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi M.Hasanovani tuman hokimi nomiga yozgan 04.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “G‘ayrat” MFY “Baraka” ko‘chasiga 600 kV 10 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 12 000.0 (o‘n ikki) million. so‘m;

6.Namangan tuman “Chag‘ir” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi B.Ergashevni tuman hokimi nomiga yozgan 03.08.2026 yildagi 27-sonli xatiga asosan, “Chag‘ir” MFY “Sirdaryo” ko‘chasiga 160 kVt 1 dona transformator sotib olish uchun 46 000.0 (qirq olti) million. so‘m;

7.Namangan tuman “G‘ayrat” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi M.Xasanovani tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi 5-sonli xatiga asosan, “G‘ayrat” MFY “Sadacha” ko‘chasiga 6 dana beton ustunlar sotib olish uchun 7 500.0 (etti besh yuz) mnng. so‘m;

8.Namangan tuman “Nurtepa” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi T.Turaxmjaevni tuman hokimi nomiga yozgan 03.08.2026 yildagi 27-sonli xatiga asosan, “Nurtepa” MFY “Nurabod” ko‘chasiga 160 kVt 1 dona transformator sotib olish uchun 46 000.0 (qirq olti) million. so‘m;

9.Namangan tuman “Katta Toshbuloq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi S.Abdullaevni tuman hokimi nomiga yozgan 07.09.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Katta Toshbuloq” MFY “Istiqlol” ko‘chasiga 600 kV 15 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 18 000.0 (o‘n sakkiz) million so‘m, Mustaqillik ko‘chasiga 5 dona tungi yoritish chiroqlari tayanch ustuni bilan sotib olish uchun 17 000.0 (o‘n yetti) million so‘m, jami 35000.0 (o‘ttiz besh) million so‘m.

10.Namangan tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i podpolkovnik A.A.Ubaydullaevni tuman hokimi nomiga yozgan 2026-yil 2-sentyabrdagi 50/33/5-71-sonli hatiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-sonli qarori asosida tumandagi Qurama, Mirishkor, Katta Toshbuloq, Bo‘ston, Yashinobod, Kichik Toshbuloq hamda G‘ayrat mahalla fuqarolar yig‘inlarini asosiy kirish-chiqish joylari hamda aholi gavjum joylariga inson yuzini va avtotransportlarni davlat raqamini tanib oluvchi DC-2CD3641-

IZS kameralaridan 21 dona 44 100 000 (qirq to‘rt million bir yuz ming) so‘m, shuningdek, mahallalardagi ko‘p qavatli uylarning xodlilariga PTZ kameralarini Katta Toshbuloq MFYga 4 dona va Past Qiyot MFYga 1 dona, umumiy qiymati 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m, kameralarni o‘rnatish uchun jami 74 100 000 (etmish to‘rt million bir yuz ming) so‘m; jami harajatlar uchun 352 600.0 (uch yuz ellik ikki million olti yuz) ming so‘m mablag‘larni “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasida hozirda mablag‘ mavjudligini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilishiga amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Bu orqali MFYlarning infratuzilmasi yaxshilanib, aholi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur mablag‘larning manzilli va maqsadli yo‘naltirilishi hududdagi infratuzilma muammolarini bartaraf yetish, aholi turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoniga asosan, tuman hokimligi hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmoni bilan “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari A.Sobirjonovning hisoboti ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin hamda soxada amalga oshirilayotgan ishlari qoniqarli deb baholansin.

2. Namangan tuman hokimligi huzuridagi “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi hisobidan:

“Oq yer” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Sh.Haydarovni tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Oq yer” MFY “Sayxun” ko‘chasiga 10 dona, “Esqon” ko‘chasiga 1 dona jami 40 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 48 000.0 (qirq sakkiz) million. so‘m;

“Ko‘l bo‘yi” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi A.Jo‘raevning tuman hokimi nomiga yozgan 31.03.2026 yildagi 01/11-sonli bildirishnomasiga asosan, “Ko‘l bo‘yi” MFY “Chek va Ixtirochi”lar ko‘chalariga 600 kV 20 dona, tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) o‘rnatish uchun 24 000.0 (yigirma to‘rt) million. so‘m;

“Oq buloq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi B.Yigitalievni tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Oq buloq” MFY “Bog‘ ko‘cha” ko‘chasiga 600 kV 30 dona, tungi yoritish chiroqlari (xarakatga

yonadigan quyosh energiyasi orqali) oʻrnatish uchun 36 000.0 (oʻttiz olti) million. soʻm;

“Qumqoʻrgʻon” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Gʻ.Inamovni tuman hokimi nomiga yozgan 04.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Qumqoʻrgʻon” MFY “Aziz” koʻchasiga 600 kV 20 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) oʻrnatish uchun 24 000.0 (yigirma toʻrt) million. soʻm;

“Gʻayrat” mahalla fuqarolar yigʻini raisi M.Hasanovani tuman hokimi nomiga yozgan 04.08.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Gʻayrat” MFY “Baraka” koʻchasiga 600 kV 10 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) oʻrnatish uchun 12 000.0 (oʻn ikki) million. soʻm;

“Chagʻir” mahalla fuqarolar yigʻini raisi B.Ergashevni tuman hokimi nomiga yozgan 03.08.2026 yildagi 27-sonli xatiga asosan, “Chagʻir” MFY “Sirdaryo” koʻchasiga 160 kVt 1 dona transformator sotib olish uchun 46 000.0 (qirq olti) million. soʻm;

“Gʻayrat” mahalla fuqarolar yigʻini raisi M.Xasanovani tuman hokimi nomiga yozgan 19.08.2026 yildagi 5-sonli xatiga asosan, “Gʻayrat” MFY “Sadacha” koʻchasiga 6 dana beton ustunlar sotib olish uchun 7 500.0 (etti besh yuz) mnng. soʻm;

“Nurtepa” mahalla fuqarolar yigʻini raisi T.Tuxraixjaevni tuman hokimi nomiga yozgan 03.08.2026 yildagi 27-sonli xatiga asosan, “Nurtepa” MFY “Nurabod” koʻchasiga 160 kVt 1 dona transformator sotib olish uchun 46 000.0 (qirq olti) million. soʻm;

“Katta Toshbuloq” mahalla fuqarolar yigʻini raisi S.Abdullaevni tuman hokimi nomiga yozgan 07.09.2026 yildagi bildirishnomasiga asosan, “Katta Toshbuloq” MFY “Istiqlol” koʻchasiga 600 kV 15 dona tungi yoritish chiroqlari (xarakatga yonadigan quyosh energiyasi orqali) oʻrnatish uchun 18 000.0 (oʻn sakkiz) million soʻm, Mustaqillik koʻchasiga 5 dona tungi yoritish chiroqlari tayanch ustuni bilan sotib olish uchun 17 000.0 (oʻn yetti) million soʻm, jami 35000.0 (oʻttiz besh) million soʻm;

Namangan tuman ichki ishlar boʻlimi boshligʻi podpolkovnik A.A.Ubaydullaevni tuman hokimi nomiga yozgan 2026-yil 2-sentyabrdagi 50/33/5-71-sonli hatiga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentini 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-sonli qarori asosida tumandagi Qurama, Mirishkor, Katta Toshbuloq, Boʻston, Yashinobod, Kichik Toshbuloq hamda Gʻayrat mahalla fuqarolar yigʻinlarini asosiy kirish-chiqish joylari hamda aholi gavjum joylariga inson yuzini va avtotransportlarni davlat raqamini tanib oluvchi DC-2CD3641-IZS kameralaridan 21 dona 44 100 000 (qirq toʻrt million bir yuz ming) soʻm, shuningdek, mahallalardagi koʻp qavatli uylarning xodlilariga PTZ kameralarini Katta Toshbuloq MFYga 4 dona va Past Qiyot MFYga 1 dona, umumiy qiymati 30 000 000 (oʻttiz million) soʻm, kameralarni oʻrnatish uchun jami 74 100 000 (etmish toʻrt million bir yuz ming) soʻm;

jami harajatlar uchun 352 600.0 (uch yuz ellik ikki million olti yuz) ming so'm mablag'larni tuman hokimligi huzuridagi "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi hisobidan ajratilsin.

3.Tuman hokimligining bosh hisobchisi Sh.Uralovga jamg'armadan ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirish chorasini ko'rsin.

4.Tuman hokimligi хузуридаги "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi mablag'lari hisobidan davlat xaridlarini amalga oshuruvchi komissiyasiga;

- tuman hokimligi huzuridagi "Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasi mablag'larini yo'naltirish to'g'risidagi takliflari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmoni talablariga muvofiqligiga shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

"Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik" jamg'armasidan mablag' oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi, shu bilan birgalikda, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan mutasaddi rahbarlar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga bir oy muddatda tegishli ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlasinlar.

6. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari Sh. Abubakirov, tuman hokimi o'rinbosari J.Akbarov, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi E.Yusupov hamda Kengashning Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi rais U.Soliyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



**SOLIYEV
UMIDJON
AXMADALIYEVICH**